

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
---	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
---	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
--	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
---	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
--	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
---	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93
---	----



UO'K: 323.2+37.034+316.4

YANGI O'ZBEKISTONDA KOMIL INSONNI SHAKLLANTRISHDA MILLIY G'OYANING O'RNI**THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN THE FORMATION OF A PERFECT PERSON IN THE NEW UZBEKISTAN****РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ФОРМИРОВАНИИ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****Abdumutalov Xurshidbek Qahramonjon o'g'li** 
Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni shakllantirishda milliy g'oyaning o'rni tahlil qilinadi. Komil inson tushunchasining tarixiy ildizlari, zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va milliy g'oya bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, ta'lim, ma'naviyat va ijtimoiy institutlarning bu jarayondagi roli muhokama qilinib, istiqboldagi yo'nalishlar yuzasidan xulosalar beriladi.

Abstract

This article analyzes the role of national ideology in shaping a well-rounded individual in the context of New Uzbekistan. It explores the historical roots of the concept of a well-rounded person, its significance in contemporary society, and its connection to national ideology. The paper also discusses the role of education, spirituality, and social institutions in this process and provides conclusions regarding future directions.

Аннотация

В данной статье анализируется роль национальной идеологии в формировании всесторонне развитой личности в условиях Нового Узбекистана. Рассматриваются исторические корни понятия "всесторонне развитая личность", его значение в современном обществе и связь с национальной идеологией. Также обсуждается роль образования, духовности и социальных институтов в этом процессе, а также даются выводы относительно будущих направлений.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, komil inson, milliy g'oya, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, ta'lim tizimi, madaniyat, texnologik rivojlanish, ilm-fan, oila va jamiyat, islohotlar, qadriyatlar, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy

Key words: New Uzbekistan, well-rounded individual, national ideology, spirituality, moral education, education system, culture, technological development, science, family and society, reforms, values, Abu Nasr al-Farabi, Alisher Navoiy.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, всесторонне развитая личность, национальная идеология, духовность, нравственное воспитание, система образования, культура, технологическое развитие, наука, семья и общество, реформы, ценности, Абу Наср аль-Фараби, Алишер Навои.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zahirida barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma'naviy jihatdan yetuk insonlar etib voyaga yetkazish g'oyasi yotadi. Maktablar va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalash eng muhim vazifadir. Chunki jamiyat a'zolarining yaxshi xulqli, halol va pok bo'lishini orzu qilamiz, ammo o'sha jamiyatning kelajagi bo'lmish bolalar tarbiyasi haqida qayg'urmasak, niyatlarimiz sarobligicha qolaveradi. Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Yosh avlodni kelajakda odob-axloqli, ilmiy bo'lib yetishishlariga avvalo kimlar mas'ul degan savol tug'iladi. Ularning odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasi mas'uliyati uyda ota-ona, ta'lim dargohlarida muallim va ustozlarining zimmasidadir [1.8-9]. Haqiqatan, tadbirli, ziyarak ota-ona bolalarini ibratli xulq, chiroyli muomala, mehribonlik, kamtarlik, yaxshi nasihat, to'g'ri yo'l ko'rsatish kabi vositalardan foydalangan holda tarbiyalaydi. Shundagina bolalar ezgulik, o'zgalarga hurmat ko'rsatish, mehribonlik qilish muhitida ulg'ayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Komil inson tushunchasi buyuk allomalarning ilmiy va falsafiy qarashlarida keng yoritilgan. Abu Nasr Forobiy inson kamolotini aql va axloq bilan bog'lagan[2.160] bo'lsa, Alisher Navoiy bunday shaxsni ilm-ma'rifat va odob egasi sifatida tasvirlagan[3.218]. Mavlono Jaloliddin Ruminiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida yoritilgan qarashlarida, U odamlar bir-biridan boyligi, irqi, dini, nasl-nasabi bilan emas, balki komilikka intilishi bilan farq qiladi, deydi. Uning fikricha, inson komillikka o'z mehnati, qobiliyatiga yarasha erisha olishini ta'kidlagan[4. 47].

Milliy g'oya esa jamiyatning ma'naviy negizi bo'lib, unga ta'lim va tarbiya orqali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari surayotgan islohotlari bu borada muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda milliy g'oya, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya tizimi, oilaviy muhit va ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Komil insonni shakllantirishda milliy g'oya quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali namoyon bo'ladi: Milliy o'quv dasturlariga ma'naviyat va axloqiy tarbiyani chuqur singdirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategyasi" kitobida "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi"[5.135] deb, ta'kidlagani bejiz emas, bundan ma'lum bo'ladi-ki, faqargina ta'lim beradigan maskan emas, balki barcha uchun yuksak ma'naviyat beshigi, o'quvchi yoshlarni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylansagina o'z maqsadiga erishishi mumkin.

Komil inson tushunchasi tarixiy ildizlarga ega bo'lib, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy kabi allomalar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ularning asarlarida komil inson aql, axloq, ilm-ma'rifat va ruhiy poklik bilan tavsiflanadi. Masalan, Forobiy inson kamolotini aql va axloq bilan bog'lagan bo'lsa, Navoiy ilm-ma'rifat va odobni komillik mezon sifatida ko'rsatgan. Rumiy esa insonning komillikka intilishi, o'zining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy mas'uliyatini anglab yetishi, barcha imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilganligini ta'kidlagan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samarali tashkil etilishi, o'quv dasturlariga milliy g'oya va ma'naviyat asoslarining kiritilishi bu yo'nalishda muhim qadamdir. Shuningdek, oilada ota-ona, ta'lim dargohlarida muallim va ustozlarning mas'uliyati katta bo'lib, ular bolalarni ibratli xulq, chiroyli muomala, mehribonlik, kamtarlik kabi fazilatlar bilan tarbiyalashlari zarur.

Milliy g'oya jamiyatning ma'naviy negizi bo'lib, unga ta'lim va tarbiya orqali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari surayotgan islohotlari bu borada muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Milliy g'oya orqali jamiyat a'zolarining maqsad va manfaatlari birlashtirilib, ularni ezgu maqsad sari yo'naltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Ta'lim muassasalarida tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish: O'quv dasturlariga ko'proq milliy g'oya, ma'naviyat va axloqiy tarbiya asoslarini kiritish, ustozlarning malakasini oshirish.

Ta'lim muassasalari va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash: Ota-onalarning tarbiyadagi rolini kuchaytirish, ularni bolalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda, ta'lim olishda va ko'proq kitob o'qishlariga imkoniyat yaratishga undash.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish: Mahalla, diniy tashkilotlar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish.

Professor O.Musurmonova ta'kidlaganidek: "Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talaba-yoshlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi" [6.135]. Bu fikr ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kutubxonalar tashkil qilish: Mahalla guzarlari, bozor, maktablar, oliy o'quv yurtlari atrofida zamonaviy kutubxonalar tashkil etish va u yerda yangi kitob taqdimotlarini va kitobxonlik davralari tez tez o'tkazib turish. Professor A.Erkaev o'zining "Ma'naviyat va taraqqiyot" nomli asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Ma'naviyat – insonning ruhiy olami, ichki dunyosi, e'tiqodi, iymoni, vijdoni, dunyoqarashidir" [7. 182]. Demak, kitob taqdimotlari va kitobxonlik davralari talaba-yoshlarning aynan shu jihatlarini rivojlantirish, ularni yuksaltirish maqsadida o'tkaziladi.

Milliy g'oyani targ'ib qilish: Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali milliy g'oya va komil inson tushunchasini keng targ'ib qilish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar orqali Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni shakllantirishga erishish mumkin bo'ladi.

XULOSA

Milliy g'oya – bu jamiyatni birlashtiruvchi va insonni kamolot sari yetaklovchi g'oyaviy-ma'naviy asosdir. Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni tarbiyalashda ta'lim, madaniyat, ilm-fan va ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu yo'nalishda tizimli yondashuv va amaliy islohotlarni amalga oshirish zarur. Maqolada ilgari surilgan fikrlar milliy g'oya asosida komil insonni shakllantirish bo'yicha muhim ilmiy-amaliy jihatlarni ochib berishga qaratilgan. Agar biz o'z ajdodlarimiz merosiga, milliy an'analарimizga tayanib, yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalasak, ularning Vatanga sadoqatli, bilimli va ma'naviy yetuk bo'lib ulg'ayishiga erishamiz. Bu esa jamiyat taraqqiyoti va millat ravnaqining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu omillarni uyg'unlashtirish orqali Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantirishga erishish mumkin.

Komil inson shakllanishida ta'lim, ma'naviyat, tarbiya, innovatsiya va diniy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar o'zaro uyg'unlashganda, jamiyatga foydali, mas'uliyatli, bilimdon va yuksak axloqiy fazilatlar egasi bo'lgan shaxslar yetishib chiqadi. Shunday ekan, har bir inson o'zini intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlantirishga, jamiyatga foyda keltirishga intilishi lozim.

Shuning uchun komil inson nafaqat bilimli, balki ma'naviyatli bo'lishi ham muhim. Texnologik rivojlanish, ilm-fan va innovatsiyalar insonni har tomonlama yetuk va komil bo'lishiga yordam beradi. Biroq bu jarayon ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'un holda olib borilishi kerak. Zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri yo'naltirish orqali bilimli, ijtimoiy mas'uliyatli va kreativ tafakkurga ega insonlarni tarbiyalash mumkin. Shuning uchun jamiyat texnologiyalarni rivojlantirish bilan birga, insonni ma'naviy barkamol qilishga ham e'tibor qaratishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
3. Alisher N. Xamsa. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy Ma'naviy. Tarjima sharxi bilan. Tarjimon Asqar Mahkam. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.